

## SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA BOSHQARUVNING OCHIQLIGI VA SHAFFOFLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI

**Mirzaaliyeva Aziza Musurmon qizi**

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti doktoranti,*

*Toshkent, O'zbekiston.*

Tel: +998901238782

azizamirzaaliyeva1@gmail.com

ORCID: 0009-0007-2362-1271

**Annotatsiya:** Ushbu tadqiqotda davlat boshqaruvining turli yo'nalishlarida tatbiq etilayotgan hamda bugungi kunning zarur talabiga aylangan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan biri sun'iy intellektni tizimda joriy etishdagi yutuqlar hamda foydalar haqida so'z yuritiladi. Shu bilan bir qatorda, chet el tajribasini inobatga olgan holda davlat sektorida qo'llash mumkin bo'lgan, boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan yangi usullari ham tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** raqamli profil, ochiq kod, sun'iy intellekt, chat-bot, ovoz yozuvchi robot, davlat xizmatlari, boshqaruv

**Abstract:** This study examines the achievements and benefits of implementing artificial intelligence as one of the modern information and communication technologies that has become an essential requirement of today, within various areas of public administration. In addition, based on international experience, the study analyzes new approaches applicable in the public sector aimed at enhancing governance efficiency and improving the effectiveness of management systems.

**Keywords:** digital profile, open source code, artificial intelligence, chatbot, voice-recognition robot, public services, governance

**Аннотация:** В данном исследовании рассматриваются достижения и преимущества внедрения искусственного интеллекта как одной из современных информационно-коммуникационных технологий, ставшей актуальным требованием современности, в различных сферах государственного управления. Наряду с этим, на основе зарубежного опыта анализируются новые подходы, применимые в государственном секторе и направленные на повышение эффективности управления и совершенствование управленческих систем.

**Ключевые слова:** цифровой профиль, открытый исходный код, искусственный интеллект, чат-бот, голосовой робот, государственные услуги, управление

### Kirish

Ma'lumki, davlat sektorining raqamli transformatsiyasi, birinchi navbatda, ma'lumotlar tahlili, ijtimoiy media platformalari, sun'iy intellekt texnologiyalari

kabilardan foydalanishni qamrab oladi. Ularning imkoniyatlaridan kelib chiqib aytish mumkinki, sun'iy intellekt modellari takrorlanuvchi topshiriqlarni avtomatik tarzda bajaradilar. Turli xil ovoz yozuvchi robotlar hamda chat-botlar fuqarolarning murojaatlariga 24 soat tinmasdan javob bera oladi. Bundan tashqari, mashinali o'qitish algoritmlari bazada bor ma'lumotlarni tahlil qilib yaqin kelajak uchun strategiya yarata oladi.

### Asosiy qism

SI davlat hokimiyatining ochiq va shaffof bo'lishiga xizmat qilar ekan, bevosita, uning xalq uchun legitimligini oshiradi ( albatta maqsadli ishlasa). Sababi, fuqarolar o'zlarining savollariga hech qanday navbatlarsiz tezkor ravishda qoniqarli javob olar ekanlar, ijtimoiy qiymat oshganligini his qilishadi. Siyosiy madaniyatda axloq masalasiga yetakchi e'tibor beriladi; Siyosiy erkinlikni esa axloq doirasida qabul qilish kerak.<sup>1</sup> Ta'kidlash joizki, SI texnologiyalarining qaror qabul qilish imkoniyatlari ham bor, ammo bu jihati hali ko'plab qayta ishlash va tahlillarga muhtoj. Sababi, qaror qabul qilishning markazida inson omili turishi turli xil kuzatilishi mumkin bo'lgan tarafkashliklarni hamda katta xatolarni oldini oladi. Henk va Nilssen<sup>2</sup> ta'kidlashicha, sun'iy intellektni joriy etish xodimlarning ijodkorligi va mustaqil ishlash qobiliyatini oshiradi. Chunki xodimlar vaqtini texnik va takroriy vazifalarga emas, balki tahliliy fikrlash, muammolarni hal etish va innovatsion g'oyalarni ishlab chiqishga sarflash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bugungi kunda Yevropa davlatlari boshqaruv sohasiga SI texnologiyalarini integratsiya qilishda sezilarli ijobiy natijalar ko'rsatishmoqda. Xususan, Ispaniya hukumati ochiq kodli (Open Source) algoritmlardan foydalanishni tanlashdi. Bu esa algoritmlarni tekshirish hamda nazorat qilishning kaliti hioblanadi.<sup>3</sup> Faraz qilaylik O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimida kam daromadli oilalarga moddiy yordam berishda SI qo'llansa, tizim fuqaroga tegishli mulklarni tahlil qilgan holda tavsiya ishlab chiqadi. Agar tizim ochiq yoki yarim ochiq kodli qilib qo'yilganda, mutaxassislar qarorning qay darajada shaffofligini tekshirishi oson bo'ladi. Bundan tashqari, etik qoidalar kodeksini joriy qilish hamda maxsus nazorat qo'mitasini tashkil etish Ispaniya hukumatining bugungi kundagi asosiy yutuqlaridan biri.

Bolgariya hukumatida ko'zga tashlangan jihatlardan biri, 2022-2023-yillarda qilingan raqamli transformatsiya tadqiqoti bo'lib unda Bolgariyadagi shahar va tumanlar kesimida raqamli xizmatlardan foydalanish tahlil qilingan. Raqamli xizmatdan foydalanuvchilarning "raqamli profili" yaratilgan va shu orqali kim qachon

<sup>1</sup> Политология: Марузалап матни / Такризчилар: В.С.Ким, Ж.Бахронов. -Т., 2000. - Б. 141-144.

<sup>2</sup> A. Henk and F. Nilssen, "Can AI become a state servant? A case study of an intelligent chatbot implementation in a scandinavian public service," in 54th Annual Hawaii International Conference on System Sciences, HICSS, 2021, pp. 5515-5524

<sup>3</sup> Vesnic-Alujevic, Lucia, Susana Nascimento, and Alexandre Pólvor. 2020. Societal and Ethical Impacts of Artificial Intelligence: Critical Notes on European Policy Frameworks. *Telecommunications Policy* 44: 1–15

qaysi xizmatdan foydalanishi aniq ko‘rinadi.<sup>4</sup>

Mamlakatimizda ham bunday ishlarni huquqiy jihatdan tartibga solish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.10.2024-yildagi PQ-358-son qaroriga asosan, “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga asosan “...Xavfsizlik va etika talablarini joriy etish maqsadida quyidagi choralar ko‘riladi: sun’iy intellekt texnologiyalari bo‘yicha etika qoidalarini ishlab chiqish; ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash va qayta ishlash hamda ularni muhofaza qilish va xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish...” rejalashtirilgan.<sup>5</sup>

### **Xulosa**

Sun’iy intellekt katta hajmdagi ma’lumotlarni tezkor tahlil qilish imkonini berib, boshqaruv jarayonlarida aniqlik va tezkorlikni oshiradi. Natijada davlat xizmatlarining sifati yaxshilanadi va fuqarolarning ishonchi ortadi. Ochiq ma’lumotlar bazalari bilan integratsiya qilingan SI tizimlari korrupsion xavflarni erta aniqlashga yordam beradi. Shu bilan birga, raqamli monitoring mexanizmlari davlat xarajatlarining samarali nazorat qilinishini ta’minlaydi. Sun’iy intellekt yordamida fuqarolarning murojaatlari avtomatik tarzda tahlil qilinib, ularning muammolarini tezkor hal etish imkoniyati yaratiladi. Bu jarayon boshqaruv organlarining operativligini sezilarli darajada oshiradi. Tadqiqot shuni ham ko‘rsatadiki, SI texnologiyalarining joriy etilishi ma’lumotlar shaffofligini kuchaytiradi va yashirin jarayonlarni kamaytiradi. Biroq ushbu tizimlarni samarali joriy etish uchun huquqiy va texnik infratuzilmani takomillashtirish zarur. Shuningdek, kiberxavfsizlik masalalari ham ustuvor yo‘nalish sifatida qaralishi lozim. Davlat xizmatchilarining raqamli savodxonligini oshirish SI tizimlaridan samarali foydalanishning muhim sharti hisoblanadi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, ochiq algoritmlarga asoslangan boshqaruv modellari shaffoflikni yanada mustahkamlaydi. Umuman olganda, sun’iy intellekt davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish va uni yanada ochiq tizimga aylantirishda strategik ahamiyatga ega vosita hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Политология: Марузлар матни / Такризчилар: В.С.Ким, Ж.Бахронов. -Т., 2000. - Б. 141-144.
2. A. Henk and F. Nilssen, "Can AI become a state servant? A case study of an intelligent chatbot implementation in a scandinavian public service," in 54th Annual Hawaii International Conference on System Sciences, HICSS, 2021, pp. 5515-5524

<sup>4</sup> Elitsa Lazarova and Nadezhda Veselinova. 2023. The digital transformation of Bulgarian municipal administration in the era of artificial intelligence. In *International Conference on Computer Systems and Technologies 2023 (CompSysTech '23)*, June 16, 17, 2023, Ruse, Bulgaria. ACM, New York, NY, USA, 5 pages. <https://doi.org/10.1145/3606305.3606319>

<sup>5</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-7158604#-7160450>

3. Vesnic-Alujevic, Lucia, Susana Nascimento, and Alexandre Pólhora. 2020. Societal and Ethical Impacts of Artificial Intelligence: Critical Notes on European Policy Frameworks. *Telecommunications Policy* 44: 1–15
4. Elitsa Lazarova and Nadezhda Veselinova. 2023. The digital transformation of Bulgarian municipal administration in the era of artificial intelligence. In *International Conference on Computer Systems and Technologies 2023 (CompSysTech '23)*, June 16, 17, 2023, Ruse, Bulgaria. ACM, New York, NY, USA, 5 pages. <https://doi.org/10.1145/3606305.3606319>
5. <https://lex.uz/ru/docs/-7158604#-7160450>